

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10541186>

Alpisbaeva Shaxnoza Salamat qizi

Toshkent Moliya instituti talabasi

Ilmiy rahbar

DSc, professor **Rustamov Davron Rustamovich**

Annotatsiya: *Ushbu maqolada banklarda daromadlar va xarajatlarni shakllantirish, uni hisobga olish, bank faoliyati natijalari hisobini o'rganish hamda takomillashtirish, tijorat banklarida daromad va xarajatlar tahlili ATB "Kapitalbank" misolida ko'rib chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *Banklarda daromadlar, foizli daromad, foizsiz daromad, banklarda xarajatlar, foizli xarajatlar, foizsiz xarajatlar, operatsion xarajatlar, foyda va zarar.*

KIRISH

Tijorat banklarining asosiy faoliyati foyda olishga qaratilgan bo'lib, ma'lumki foyda daromadlar summasining xarajatlar summasidan ortgan sharoitida vujudga keladi. Tijorat banklari daromad va xarajatlari, mos ravishdabuxgalteriya hisobvaraqlar rejasining passiv va aktiv hisobvaraqlarida yuritilib, ushbu hisobvaraqlar hisobot davrining oxirida bankning "foyda va zarar"lar hisobvarag'i bilan korrespondensiyasi asosida yopiladi. Bank foydasini taqsimlash uning aksiyadorlar kengashi yig'ilishida hal etiladi. Tijorat banklari daromad va xarajatlari buxgalteriya hisobining hisoblash metodi asosida amalga oshiriladi, ya'ni bank faoliyati natijasida kelgusida olinishi yoki to'lanishi ko'zda tutilgan daromad va xarajatlar bo'yicha operatsiyalar sodir bo'lgan paytda bu'galteriya hisobvaraqlar rejasining tegishli hisobvaraqlarida aks ettirib boriladi. Tijorat banklarining daromadini oqilona tarzda oshirib borishni ta'minlash ularning moliyaviy barqarorligini oshirishning zaruriy shartlaridan yana biri hisoblanadi. Shuningdek, bank foydasini oqilona tarzda taqsimlash, daromad va xarajatlar hisobga olish tartibini takomillashtirish banklar faoliyati samaradorligini oshirishning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947- sonli farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, ularning kapitallashish darajasini oshirish, resurs bazasini mustahkamlash makroiqtisodiy o'sish sur'atlarining barqarorligini ta'minlashning zaruriy shartlari sifatida e'tirof etilgan. Bu esa, bevosita tijorat banklarining daromad bazasini mustahkamlash zaruriyatini yuzaga keltiradi. Buning sababi shundaki, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash ham, ularni resurslar jalb qilish imkoniyati ham bevosita ularning daromad bazasiga bog'liq. Shuningdek, 2020 - 2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini

isloh qilish strategiyasida banklarning davlat resurslariga qaramligini pasaytirish mamlakat bank tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Buxgalteriya hisobida daromad tushunchasi "Moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etishning konseptual asosi" (MHXS-1)da aktivlarning kelib tushishi yoki ko'payishi yoxud majburiyatlarning kamayishi shaklida iqtisodiy nafning hisobot davrida o'qishi va ushbu o'sishning kapital egalarining kapitalga qo'yilmalari bilan bog'liq bo'lmagan ko'payishi sifatida ta'riflangan. Daromad tushunchasi odatdagi faoliyatdan olinadigan daromad va boshqa daromadlarni o'z ichiga oladi.

Daromadlar deganda, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish faoliyatlaridan kelgan pul tushumi tushuniladi.

Tijorat banklari boshqa tijorat korxonalariga singari asosiy va qo'shimcha faoliyatdan, shuningdek, boshqalar kategoriyasiga kiruvchi tasodifiy daromadlar olishi mumkin. Bankning asosiy faoliyati bo'lib, bank operatsiyalarini amalga oshirish va mijozlarga bank xizmatlarini ko'rsatish hisoblanadi. Daromad keltiruvchi boshqa faoliyatlar esa, boshqa daromadlar hisoblanadi.

Bankning oladigan daromadi, uning xarajatlarini qoplashi va foyda yaratishi kerak. Bank daromadining bir qismi potensial risklarni qoplash uchun tashkil etiladigan zahiraga yo'naltiriladi. Bank o'z xarajatlarini qoplashi uchun daromad xajmining etarligini ta'minlashi emas, balki tushumining bir xildaligini ta'minlashi kerak. Boshqacha aytganda, daromad oqimi bankning xarajat qilinadigan davriga mos holda vaqt jixatdan taqsimlangan bo'lishi kerak. Bunday rejalashtirishda daromad manbalarining barqarorligi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Diana Mak Noton bank daromadi – jalb qilingan resurslar hisobidan berilgan kreditlardan olingan foizlar bilan jalb qilingan resurslar bo'yicha to'langan foizlar o'rtasidagi farqdan iboratdir deb yozadi. Ushbu ta'rifda bank daromadini faqat kreditlar bo'yicha olingan foizlar va to'langan foizlar o'rtasidagi farqni nazarda tutgan. Bu ko'proq foyda tushunchasiga mos keladi. Shuningdek, u boshqa bank operatsiyalaridan olinadigan daromadlarni nazardan chetda qoldirgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

"Kapitalbank" aksiyadorlik tijorat banki.

O'zbekistondagi birinchi xususiy tijorat banklaridan biridir. 2001-yil aprel oyidan boshlab Bank O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki litsenziyasi asosida muvaffaqiyatli faoliyat yurita boshladi. 2004-yilda "Aviabank" (Toshkent sh.) aksiyadorlik tijorat banki bilan birlashgandan so'ng, Bank aksiyadorlik tijorat banki sifatida qayta ro'yxatdan o'tkazildi. 2008-yil dekabr oyida Bank o'zining to'liq – "Kapitalbank" ochiq aksiyadorlik tijorat banki nomi bilan yangi tahrirdagi Nizomni ro'yxatdan o'tkazdi. Bank Markaziy bankning 2014-yil 29-dekabrda 69-sonli bank operatsiyalarini o'tkazish bo'yicha litsenziyasiga, shuningdek, 2014-yil 29-avgustda 64-sonli chet el valyutasida operatsiyalarni amalga oshirish uchun Bosh litsenziyasiga ega. Tashkil etilganidan beri Bank yuqori sur'atlarda rivojlanib,

korporativ mijozlarga xizmat ko'rsatish sohasida ham, chakana savdo segmentida ham yuqori o'sishni namoyish etdi.

Vaqt o'tishi bilan innovatsiyalarning qat'iy ro'yxati bankka yangi texnologiyalar hisobiga mahalliy bozorda yetakchi o'rinni egallashga imkon berdi, bu ko'plab mijozlarga sifatli xizmatlar ko'rsatish, xalqaro miqyosda tan olinishga va mamlakatdagi eng ishonchli va moliyaviy barqaror banklardan biri sifatida obro'- e'tibor qozonishga sabab bo'ldi.

Bank reytingi. Milliy reyting RA "Axbor - Reyting"da "UZA+" "Barqaror" ijobiy, Xalqaro reyting: RA "Standart & POOR'S"da "B/Barqaror/B" Barqaror , "Moody's"da "B2/B1" prognoz – Barqaror ko'rsatkichga ega. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2021yil 25-dekabrdagi 31/10-soni qaroriga muvofiq bank faoliyatini amalga oshirish xuquqini beruvchi №69-raqamli lisenziya bilan faoliyat olib boradi.

Banklarning daromadlarini tarkibi va tuzilmasini boshlang'ich baholash jami daromadlar tarkibida foizli va foizsiz daromodlarning salmog'ini baholashdan boshlanadi. Banklarning daromadlarini tarkibi va tuzilmasini tahlil qilishda haqiqatdagi ko'rsatkichlar biznes rejadagi ko'rsatkichlar bilan yoki hisobot yilidagi ko'rsatkichlar o'tgan yildagi ko'rsatkichlar bilan mos ravishda taqqoslanadi.

Bank daromadlarini shakllantirish tartibi ATB «Kapitalbank» misolida ko'rib chiqamiz.

1-jadval

ATB «Kapitalbank»ning daromadlari tarkibi

mln.so'm hisobida

Ko'rsatkichlar	2020 yil		2021 yil		2022yil	
	Summa	%	Summa	%	Summa	%
Jami daromadlar	1050626	100	1500595	100	2646544	100
Foizli daromadlar	681337	64,85	1001597	66,75	1868454	70,6
Foizsiz daromadlar	369289	35,15	498998	33,25	778090	29,4

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, ATB "Kapitalbank" jami daromadlari 2022 yilda 2646544 mln so'mni tashkil etgan bo'lib, 2021 yildagidan 1145949 mln so'mga, 2020 yildagidan 1595918 mln so'mga ortgan.

Jami daromadlar tarkibida 2022 yildagi foizli daromadlar 1868454 mln so'm bo'lib, jami daromadning 70,6 foizni tashkil etgan. Foizsiz daromadlar esa 29,4 foizni tashkil etgan. 2021 yilda jami daromadlar 1500595 mln so'mni tashkil etgan bo'lib, jami daromadlar tarkibida foizli daromadlar 1001597 mln so'mni va foizsiz daomadlar 498998 mln so'mni tashkil etgan. Foizli daromadning jami daromaddagi ulushi o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Ushbu xolat bank uchun ijobiy deb aytish mumkin, chunki bankning foizli daromadi asosiy faoliyati bilan bog'liq bo'lib uning ulushi 70-75%ni tashkil qilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. ATB "Kapitalbank" 2022 yildagi olingan daromadlarni ijobiy bo'lgan deb baholash mumkin.

Endi bank daromadi hisobida uni tashkil qiluvchi foizli daromadlar tarkibi o'rganiladi.

ATB «Kapitalbank»ning foizli daromadlari tarkibi tahlili
mln.so‘m hisobida

Ko‘rsatkichlar nomi	2020 yil		2021 yil		2022 yil	
	Summa	%	Summa	%	Summa	%
Foizli daromadlar	681336	100	1001596	100	1868453	100
O‘zR MB va boshqa banklardagi hisobvaraqlar bo‘yicha foizli daromad	9091	1,33	5252	0,52	22347	1,2
Qimmatli qog‘ozlar oldi sotdi hisobvaraqlari bo‘yicha foizli daromadlar	0		22137	2,21	78950	4,22
Kredit va lizing operatsiyalari bo‘yicha foizlar, diskont(chegirma) va badallar	428180	62,84	525800	52,5	902168	48,28
Boshqa foizli daromadlar	244065	35,82	448407	44,76	864988	46,3

“Kapitalbank” ATBning foizli daromadlari 2022yilda 1868453 mln so‘mni tashkil qilgan. Uning asosiy qismini ya‘ni 902168 ni kredit va lizing operatsiyalari bo‘yicha foizlar tashkil etadi. Bu bank foizli daromadlarining 48,28 % ini tashkil qiladi.

Qolgan foizli daromadlar: O‘zR MB va boshqa banklardagi hisobvaraqlar bo‘yicha foizli daromad 1,2%ni, Qimmatli qog‘ozlar oldi sotdi hisobvaraqlari bo‘yicha foizli daromadlar 4,22 %ni, Boshqa foizli daromadlar esa 46,3 %ni tashkil etadi. “Kapitalbank” ATB asosiy faoliyati mijozlarni kreditlashga yo‘naltirilganligini ko‘rish mumkin. Bankda foizli daromad keltiradigan boshqa operatsiyalar rivojlanmagan. Masalan, rivojlangan davlatlarning bank amaliyotida tijorat banklarining foizli daromadlarining tarkibida kreditlardan keyingi o‘rinni qimmatli qog‘ozlardan olingan foizlar egallaydi. ularning foizli daromadlarning hajmidagi salmog‘i 20-25 foizni egallaydi. AQSh va Yaponiyaning yirik tijorat banklarida kreditlardan olingan foizlarning jami foizli daromadlarning hajmidagi salmog‘i 60 foizdan oshadi.

Banklar tomonidan qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalar Fransiya tijorat banklarida 16,2 foizni, Germaniyada-15,5 %, Italiyada-23,8 %, Buyuk Britaniyada-7,8

%, Ispaniyada-23,8 %, AQShda-2,2 %, Belgiyada-6,4 %, Yaponiyada-10,2 foizni tashkil qiladi. Demak, qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalarning yuqori salmog‘i Ispaniya va Italiyada kuzatiladi. Nisbatan juda past salmoq Belgiya, Buyuk Britaniya tijorat banklariga xosdir.

Tijorat banklarida daromadlarni hisobi o‘rganishda daromad hisobvaraqlarining “O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari rejasi”ga muvofiq hisobga olinishi o‘rganiladi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki

tomonidan bank operatsiyalarini hisobga olish bo'yicha chiqarilgan me'yoriy hujjatlar mosligi o'rganiladi.

Tijorat banklari yuqoridagi talablardan kelib chiqqan holda o'z ishchi hisobvaraqlar rejasini ishlab chiqadi va shu asosida o'zlarida amalga oshirilayotgan operatsiyalar bo'yicha olinayotgan xar bir daromad va qilinayotgan xarajat moddasiga shaxsiy hisobvaraqlar ochadi, zarur bo'lganda qo'shimcha jurnal hisobi va reestrlar yuritilishi mumkin.

Hisobvaraqlar rejasidagi "Daromadlar" bo'limidagi hisobvaraqlar bank ichki hisobvaraqlari hisoblanadi. Shuning uchun tijorat banklari Markaziy bank talablari va ichki hisob siyosatidan kelib chiqqan holda ushbu hisobvaraqlarda analitik hisobni qanday yuritishni o'zlari belgilaydilar.

Tijorat banklarida daromadlari hisobga olish jarayoni ularni tan olishdan boshlanishini biz yuqoridagi savolda ko'rdik. Daromadlar tan olingandan keyin ular undiriladi yoki undirilmay qoladi. Undirilmay qolgan daromad bankka ikki marta zarar olib keladi, sababi qilingan xarajat qoplanmay qolinadi va olinmagan mablag'ga nisbatan soliq to'lanadi. Shu sababli ham bank daromadlari, xarajatlari va foydasi hisobini to'g'ri tashkil etish maqsadga muvofiq.

Quyidagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki foizsiz daromadlarning aosiy qismini vositachilikdan olingan daromad va xizmatlar uchun to'lovlar tashkil qiladi.

2022 yilda u 419958 mln so'mni tashkil qilib foizsiz daromadlar tarkibida 54 %ni tashkil etgan. Qolgan foizsiz daromadlar ichida xorijiy valyutadagi foyda (29 %), investisiyadan olingan foyda va dividendlar (0,025 %), boshqa foizsiz daromadlar (17

%) tashkil qiladi. Vositachilik daromad 2022 yilda 2021 yilga nisbatan 124942 mln so'mga ko'paygan bo'lsada jami daromaddagi ulushi 5,12 %ga, xorijiy valyutadagi foyda 3,83 %ga kamaygan, investisiyadan olingan foyda 0.001 %ga, boshqa foizsiz daromadlar 8,99 % ga ko'payganini ko'rishimiz mumkin.

3-

jadval
ATB «Kapitalbank»ning foizsiz daromadlari
tarkibi tahlili
mln. so'm hisobida

Ko'rsatkichlar nomi	2020 yil		2021 yil		2022 yil	
	Summa, mln. so'm	%	Summa, mln. so'm	%	Summa, mln. so'm	%
Foizsiz daromadlar	369287	100	498997	100	778089	100
Vositachilikdan olingan daromad va xizmatlar uchun tshlovlar	270587	73,27	295016	59,12	419958	54
Xorijiy valyutadagi foyda	77860	21,08	163870	32,83	225320	29
Investisiyadan olingan foyda va dividendlar	22	0,005	121	0,024	201	0,025
Boshqa foizsiz daromadlar	20818	5,63	39990	8,01	132610	17

Bank daromadlari hisobini ko'rib chiqqandan so'ng xarajatlar hisobi jarayonini ko'rib chiqsak. Bank xarajatlari hisobida biz xarajatlarni foizli, foizsiz va operasion xarajatlarga bo'lib o'rganishni o'rinli deb bilgan edik. Shundan kelib chiqqan holda, avvalambor bankning foizli xarajatlar hisobini tadqiq qilamiz.

4 - jadval

ATB «Kapitalbank»ning xarajatlar tarkibi tahlili

mln.so'm hisobida

Ko'rsatkichlar nomi	2020 yil		2021 yil		2022 yil	
	Summa	%	Summa	%	Summa	%
Foizli xarajatlar	481827	100	738878	100	1358898	100
Talab qilib olingunga qadar depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar	4842	1	2337	0.31	6398	0,47
Muddatli depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar(51100)	221462	45.96	280529	38	454621	33,45
Boshqa banklarga to'lov uchun hisoblar bo'yicha foizli xarajatlar	5159	1.07	4669	0.63	11369	0,83
To'lov uchun kreditlar bo'yicha foizli xarajatlar	9509	1.97	3882	0.52	4406	0,32
Boshqa foizli xarajatlar	240885	49.99	447461	60.55	882104	65
Foizsiz xarajatlar	119868	100	220816	100	226453	100
Vositachilik xarajatlari va xizmat xarajatlari	50316	41,97	82490	37,35	143221	63,24
Xorijiy valyutadagi zarar	66682	55,62	135770	61,48	82316	36,35
Boshqa foizsiz xarajatlar	2870	2,39	2556	1,15	916	0,40
Operasion xarajatlar	226790	100	293127	100	434030	100
Ish haqi va xodimlarga amalga oshirilgan boshqa xarajatlar	114873	50,65	154587	52,73	236738	54,54
Ijara va ta'minot	23542	10,38	22713	7,74	36939	8,51
Xizmat safari va transport xarajatlari	2285	1	1940	0,66	3261	0,75
Ma'muriy xarajatlar	12918	5,7	15432	5,26	38429	8,9
Reprezentasiya va xayriya	24445	10,77	11224	3,82	13577	3,12
Eskirish xarajatlari	28273	12,46	59721	20,37	69158	15,93
Sug'urta, soliq va boshqa xarajatlar	20454	76,34	27510	9,38	35928	8,27

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki "Kapitalbank" ATBning foizli xarajatlari 2022yilda 1358898 mln so'mni tashkil qilib, o'tgan yilga nisbatan 620020 mln so'mga ko'p. Foizli xarajatlar tarkibida 2022yilda eng yuqori ulushga boshqa foizli xarajatlar 65 % ni tashkil qilib, o'tgan yilga nisbatan 4,5 %ga ko'paygan. Foizsiz xarajatlari tarkibini 2022 yilda asosan vositachilik va xizmat xarajatlari, 2021 va 2020 yillarda esa xorijiy valyutadagi zarar, eng kam foiz ko'rsatkichlari bilan boshqa foizsiz xarajatlar tashkil qilganini ko'rishimiz mumkin. Operatsion xarajatlardagi ulushi 2022- yilda 54,54% tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilda 52,73%, 2020-yilda esa bu 50,65%ni tashkil qilgan.

5- jadval

ATB “Kapitalbank”da “Foyda va zararlar to’g’risida”gi hisobot shaklida moliyaviy natijalarni shakllanishi
mln.so’m hisobida

№	Ko’rsatkichlar	2020 yil	2021 yil	2022 yil	O’zgarishi % da	
					2020	2021
1	Foiz daromadi	681337	1001597	1868454	147,0	186,54
2	Foizli xarajatlar	481827	738878	1358898	153,34	183,91
3	Sof foiz daromadi	199510	262719	509556	131,68	193,95
4	Kreditlar bo’yicha ehtimoliy zararlarini (baholash) qayta tiklash	84813	49040	141891	57,82	289,33
5	Zaxirani baholash chegirib tashlaganidan keyingi sof foiz daromadi	114697	213679	367665	186,29	172,06
6	Foizsiz daromad	369289	498998	778090	135,12	155,93
7	Foizsiz xarajatlar	119868	220816	226453	184,21	102,55
8	Operasion xarajatlar	226790	293127	434030	129,25	148,06
9	Daromad (foyda) solig’idan oldingi sof foyda (zarar)	137320	183823	437400	133,86	237,94
10	Daromad (foyda) solig’ini baholash	23833	48206	81150	202,26	168,34
11	Sof foyda (zarar)	113487	135617	356250	119,50	262,68

Jadval ma’lumotlariga asosan bank 2022 yilda 2021 yilga nisbatan 22130 mln so’m miqdorida ko’p foyda olgan, bankning joriy yil foydasi 2022 yilda 2021 yilga nisbatan 2,5 barobar ko’paygan.

Bankning foydasi yuqori bo’lishi uchun, eng avvalo, uni to’g’ri tashkil qila bilish kerak. Bunda biz, foydani boshqarishni tushunishimiz kerak va uni to’g’ri baholay olishi lozim. Foydani boshqarishning asosiy maqsadi, balans likvidligini ta’minlangan holda, risklilik darajasi yuqoribo’lmaganda maksimal foyda olishdan iboratdir.

Banklarda ikki xil: taqsimlanmagan foyda va joriy yil sof foydasi farqlanadi. Bularni hisobga olish uchun hisobvaraqlar rejasining “Kapital” bo’limida 31203 – “Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)”, 31206 – “Sof foyda (zarar)” balans hisobvaraqlaridan foydalaniladi.

Ikkala hisobvaraqlar ham mazmun jihatidan aktiv–passiv hisobvaraqlardir, ularning debetida ham, kreditida ham qoldiq hosil bo’lishi mumkin. Hisobvaraqlarning debetida qoldiq hosil bo’lganda bank faoliyati zarar bilan yakunlanadi, kreditda qoldiq hosil bo’lsa bank foyda ko’rgan bo’ladi.

Joriy yil sof foydasini hisobga olish uchun 31206 – “Sof foyda (zarar)” balans hisobvarag’idan foydalaniladi, uning kreditida hisobot yilida bank tomonidan olingan foyda, noto’g’ri e’lon qilingan va qaytarilgan dividendlar hamda “Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)” hisobvarag’iga o’tkaziladigan zararlar summasi aks ettiriladi. Hisobvaraqlarning debetida esa, to’lanadigan dividendlar, zaxira kapitaliga o’tkaziladigan summa, hisobot yilida ko’rilgan zarar hamda

«Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)» hisobvarag’iga o’tkaziladigan foyda summasi aks ettiriladi. Ushbu hisobvaraqlar bo’yicha analitik hisob sof foyda va dividendlar hisobi bo’yicha alohida shaxsiy hisobvaraqlarda yuritiladi.

XULOSA

Respublikamiz iqtisodiyotini rivojlanishi va uning ravnaq topishida banklarning tutgan o’rni katta bo’lib, ular tomonidan ko’rsatiladigan xizmatlar natijasida nafaqat o’zlarini, balki xo’jalik yurituvchi sub’ektlarni, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishiga yaqindan yordam beradi, hamda takror ishlab chiqarish imkoniyatlarini yaratadi.

Banklarda daromadlar va xarajatlarni tahlil qilishda, daromadlar hamda xarajatlarni ifodalovchi ko’rsatkichlar tizimi hamda tahlil qilish uslubidan foydalangan holda tahlilni tashkil qilinib, banklarning daromadlari va xarajatlarini tahlil qilishda qo’llaniladigan usullar yig’indisidan tashkil topadi, tahlil qilish maqsadidan kelib chiqib bu usullardan tahlilda foydalaniladi. Banklarda qilingan xarajatlarni tarkibi va tuzilmasini tahlil qilganda, qilingan xarajatlar tarkibida foizli daromadlarni, foizsiz daromadlarni hamda bankning operatsion xarajatlari hajmini hamda ularning jami xarajatlar tarkibida tutgan salmog’ini to’liq baholash imkoniyatiga ega bo’lish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI: (REFERENCES):

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli farmoni. O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida//O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami. – Toshkent, 2017. – № 6 (766). – B. 32.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PF-5992-sonli “O’zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi”gi farmoni //Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 13.05.2020 y., 06/20/5992/0581-son.
3. Стародубцева. Е. Б. Банковские операции: Учебное пособие. – М.:ФОРУМ: ИНФРА-М, 2006. – 128с
4. Umarov Z. A. “Tijorat banklarining moliyaviy natijalari mohiyati” Iqtisodiyot va ta’lim jurnali № 1 2006 yil
5. Umarov Z. A. “Banklarda buxgalteriya hisobi” darslik 2021 yil
6. Xayrulla o’g’li I. T. PARTISIPATOR BYUDJETLASHTIRISH FUQAROLARNING BYUDJET JARAYONIDAGI ISHTIROKINING SAMARALI MEXANIZMI SIFATIDA //SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2023. – T. 2. – №. 15. – C. 228-229.

7. Javlonbek J. B. INVESTITSIYA FAOLIYATINI MOLIALASHTIRISHNING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI //Молодые ученые. – 2023. – Т. 1. – №. 7. – С. 67-69.
8. Navruzov I. TO 'G 'RIDAN-TO 'G 'RI XORIJIY INVESTITSIYALARNING IQTISODIY MOHIYATI VA AHAMIYATI //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – Т. 3. – №. 12 Part 2. – С. 138-144.
9. Hoshimov, Jahongir. "XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISHGA YARATILGAN MUHIT VA UNING JOZIBADORLIK DARAJASI." Iqtisodiyot va ta'lim 24.4 (2023): 42-46.
10. Khairullaevich I. T. DEVELOPMENT OF THE PAYMENT SYSTEM IN UZBEKISTAN //Academia Science Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 05. – С. 102-109.
11. Sugahara S., Ochilov B. The Experience of The Japanese State in Increasing Investment Activity in Uzbekistan //YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT. – 2023. – Т. 1. – №. 11-12.
12. Aktamov B. THE PRACTICE OF DIGITALIZATION OF EVALUATION ACTIVITIES AND THE PROSPECTS OF ITS APPLICATION IN UZBEKISTAN //American Journal of Business Management, Economics and Banking. – 2023. – Т. 19. – С. 69-77.
13. Hoshimov, Jahongir. "INVESTITSION MUHIT JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA XITOIY VA SINGAPUR TAJRIBASI." Iqtisodiyot va ta'lim 24.2 (2023): 369-373.
14. Xayrulla o'g'li I. T. MOLIIYA BOZORINI TARTIBGA SOLISH BO 'YICHA JAHON TAJRIBASI //Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities. – 2023. – Т. 11. – №. 5. – С. 330-339.
15. Abdullaevich N. I. The Role of Regional Investment Attractiveness in Attracting Foreign Direct Investment to the Country //European Journal of Economics, Finance and Business Development. – 2023. – Т. 1. – №. 7. – С. 1-6.
16. Xayrulla o'g'li I. T. IJTIMOIIY SOHADA DAVLAT XUSUSIY SHERIKCHILIK MUNOSABATLARINI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMINI O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI //THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH. – 2023. – Т. 2. – №. 15. – С. 239-243.
17. Aktamov B. BAHOLASH FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISH ISTIQBOLLARI //YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT. – 2023. – Т. 1. – №. 10. – С. 248-252.
18. Navruzov, Ikram. "MILLIY IQTISODIYOTGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI." Iqtisodiyot va ta'lim 23.6 (2022): 297-300.
19. Ataniyazov J., Shirinovna S. Blockchain as a new stage in the development of the digital economy of Uzbekistan //Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry. – 2021. – Т. 12. – №. 7.
20. Турсунова Н., Очилов Б. Вопросы повышения роли финансового рынка в деятельности корпоративных структур //Экономика И Образование. – 2020. – Т. 1. – №. 1. – С. 108-112.